

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

#### **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ .....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI.....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) .....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI .....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEKANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafokatovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ...372-378	
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406



<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

**Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna**  
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovatsion muhit tamoyillari. O'qituvchi innovatsion kompetensiyasini shakllantirishda butun jarayonni insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayanib, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion muhitini yaratish bosqichlari haqida so'z boradi.

**Kalit sozlar:** innovatsion muhit, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari, kasbiy rivojlantirish, innovatsion kompetensiya.

**Pulatova Muhabbat Egamberdievna,**  
teacher at Samarkand State University,  
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

### **PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

**Abstract.** This article discusses the principles of the innovation environment. In the formation of innovative competence of a teacher, the stages of creating an innovative environment for continuous professional development of teachers are considered, based on the principles of humanization of the entire process and person-centered education.

**Key words:** innovative environment, principles of student-centered education, professional development, innovative competence.

**Пулатова Мухаббат Эгамбердиевна,**  
преподаватель Самаркандского государственного университета,  
доктор философских наук по педагогическим наукам (PhD)

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены принципы инновационной среды. В формировании инновационной компетентности учителя рассмотрены этапы создания инновационной среды непрерывного профессионального развития педагогов, опираясь на принципы гуманизации всего процесса и лично-ориентированного образования.

**Ключевые слова:** инновационная среда, принципы лично-ориентированного образования, профессиональное развитие, инновационная компетентность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N68.1>

Maktab ta'limidan kutilayotgan natijalar o'qituvchilarning yuqori kasbiy bilim, ko'nikma, malakalari bilan yuksak shaxsiy fazilatlarining uyg'un bo'lishini talab darajasiga

ko'taradi. Bu esa maktablarda kreativ, faol, moslashuvchan, o'ta mas'uliyatli, missiyasini anglaydigan, faoliyatini refleksiv rejalashtira oladigan, muammoli vaziyatlarda o'rinli qarorlar qabul qilish va yechimlar taklif qilish, samarali muloqot ko'nikmalariga ega o'qituvchiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Urg'u berish lozimki, o'quvchilarga ta'lim berishning poydevori hisoblanmish boshlang'ich ta'limda dars beradigan o'qituvchilarda mazkur ko'nikmalarning mavjudligi bir necha karrasiga dolzarbdir.

O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish mohiyatini aniqlash uchun "soha" va "uzluksizlik" tushunchalarining mazmunini aniqlash o'rinli bo'ladi.

Falsafiy yondashuvda "soha" va "vaqt" kategoriyalari o'zaro tenglikda, ya'ni materiyaning uzunlik va davomiylik kabi sifatlarining ko'rinishi tarzida qaraladi. Shu zaylda o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishni "ta'lim sohasi", deya e'tirof etishga asos yaratiladi.

Ta'lim sohasini o'rganishga doir izlanishlar olib borgan olim S.F.Jilkinning [4] fikricha, uni ikki jihatdan o'rganish mumkin:

uzluksizlik omili sifatida – tizimga doir muhim unsurlarni saqlab qolish;

yagona talablar majmui sifatida – ilmiy va madaniy tajribani etkazishda jamiyatga xos bo'lgan uslublarni tanlash.

U bu ikki jihatni umumlashtirgan holda jarayon subyektlarining o'zaro ta'sirini ifodalovchi ta'lim sohasi, deb ta'riflaydi.

Ta'lim sohasi tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlar tahlili bir qator, jumladan, tizimli, muammoli-integrativ, rivojlantiruvchi, ijtimoiy-geografik, mahalliy yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. E'tiborlisi, ularning barchasi uchun integrativlik, hududiylik, yaxlitlik, uzluksizlik, ma'lumotlilik, rivojlantirishga yo'naltirilganlik kabi xususiyatlar umumiy bo'lib, sohaning mohiyatini, asosiy negizini aniqlash farqli tomoni sifatida qaraladi.

Demak, ta'lim sohasi deganda, jarayon subyektlarining (ta'limni boshqaruv organlari, ta'lim tashkilotlari, buyurmachilar, ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilar va b.) o'zaro ta'siri, hamkorlikdagi faoliyati tushuniladi hamda uzluksizlikni, insonning butun hayot davrini qamrab oladi. Shunga tayanib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion kompetensiyani rivojlantirishda uzluksizlik maktabgacha ta'lim → umumiy o'rta ta'lim → oliy ta'lim → uzluksiz kasbiy rivojlantirishgacha bo'lgan algoritmi ifodalaydi. Mazkur algoritmda uzluksiz kasbiy rivojlantirish asosiy bo'g'inni tashkil etadi. Chunki, o'qituvchini doimiy raqobatbardosh holatda saqlash, uni yangiliklardan voqif bo'lishga undash, muntazam ravishda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, innovatsiyalarga ochiqlik va qabul qilish holatida tutishda, aynan, shu bo'g'inning ahamiyati yuqoriligi shubhasizdir.

O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish formal, noformal va informal ta'lim turlarini birlashtirgan holda, ularni bir-biriga bog'laydi hamda uzluksizlikni ta'minlaydi. Jarayonda davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari bir xil vakolatda ishtirok etishadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan o'quv jarayonlaridan ahamiyati jihatidan kam bo'lmagan shakl mustaqil bilim olishdir. Mustaqil bilim olish o'qituvchining kasbiy ehtiyojlarini qondirish, o'z tanlovini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan ijodiy faoliyat va muloqotda shaxsni rivojlantirish, o'zini, shu orqali o'quvchilari dunyoqarashini o'zgartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Shuni ham qayd etish zarurki, ta'lim amaliyotida innovatsiyalarning kiritilishi o'qituvchining o'zini o'zgartira olish, mobillik, faoliyatiga yangiliklarni singdirish qobiliyati va


aniq belgilangan strategik rejalari mavjudligiga chambarchas bog'liq. Sohada sifat o'zgarishlarini ta'minlash, nafaqat o'qituvchi, balki tizim va uni boshqaruv vertikalida ham innovatsiyalarga ochiqlik kafolatlilik darajasini oshiradi. Shu nuqtai nazardan ularni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

tarkibiy tuzilmalar – o'qituvchining innovatsion faoliyat va o'zgarishlarga tayyorgarligini ta'minlaydigan institutsional tuzilmalar. Ularning sirasiga oliy pedagogik ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi tashkilotlari, metodik xizmat uyushmalari, pedagogik hamjamiyatlar va shu kabi tuzilmalar kiradi;

boshqaruv – o'qituvchi, ta'lim tashkiloti va sohada innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlikni anglatadi hamda joriy, taktik strategik darajalarda belgilanadi;

vaqt – avval, hozir va kelajakning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadigan rivojlanish bosqichining diagrammasi asosida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion muhitini yaratish ma'lum bir ketma-ketlikni ifodalaydigan bosqichlarda amalga oshirilishi uning natijadorligini oshiradi (1-rasm).



**1-rasm. O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning innovatsion muhitini yaratish tuzilmasi**

Mazkur bosqichlarning sifatli bajarilishi, aniq tahlillar asosida loyihalanishi, moslashuvchanligiga e'tibor qaratilishi, hamkorlikning ta'minlanishi hamda zaruriy shart-sharoitlar yaratilishi uzluksiz kasbiy rivojlantirish innovatsion muhitining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Tuzilmadan anglash mumkinki, bosqichlar aniq vazifa va maqsadlarning joriy holat tashxisi asosida belgilash, ilmiy-metodologik yondashish, faoliyatning turi, mazmuni, usullarini to'g'ri tanlash, boshqaruvning ochiq mexanizmlarini joriy etish, imkoniyatlar, cheklovlar, ziddiyatlarni inobatga olish, muayyan sharoitlar yaratish va maqbullashtirishni bildiradi.

Innovatsion muhit o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda olib boriladigan ishlarining mavjud shakl va darajalariga zaruriy o'zgartirishlar kiritishga qaratilgan qulay, moslashuvchan, ko'p bosqichli, yangiliklarga ochiq, ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlashni muvofiqlashtiruvchi izchil harakatlarni o'z ichiga oladi. Undagi qoidalar innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ta'lim jarayoni subyektlari, ayniqsa, maktablar va o'qituvchilarga bo'lgan yondashuvlarda subyektlararo hamkorlik strategiyasini belgilash uchun zamin yaratadi.

Ta'lim sohasida innovatsion muhitning shakllanishi va rivojlanib borishiga davlat va jamiyatning (bosh islohotchilar) maktab ta'limini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyoji jiddiy turtki berdi. Chunki, iqtisodiyotning jadal sur'atlarda taraqqiy etishi mustaqil fikrlay oladigan, tashabbuskor, innovatsiyalarga ochiq bitiruvchilarga talabni kuchaytirdi. Natijada ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishga qaratilgan olimlar, amaliyotchilar va boshqa mutaxassislarni birlashtirgan tadqiqotlar olib borila boshlandi. Ularda innovatsiyalarning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish, amaliyotga kiritish, takomillashtirish, o'qituvchilarni har tomonlama (kasbiy, shaxsiy, ruhiy va b.) tayyorlashga e'tibor qaratildi.

Jumladan, N.Azixodjaeva [4; 34-b.] innovatsion jarayonlarda kasbiy-pedagogik bilimdonlikka alohida e'tibor qaratadi hamda kasbiy-pedagogik bilimlar, pedagogik texnika, tajriba, pedagog shaxsi, mahoratini uning asoslari sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, kasbiy-pedagogik bilimdonlik jarayonni butun tuzilmasi bilan mantiqan yaxlit tasavvur qilish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va asosiy yo'nalishlarini tushunish, faoliyatini maqsadga muvofiq rejalashtirishni osonlashtiradi.

R.Ishmuhamedovning M.Mirsoliyeva bilan birgalikdagi tadqiqotlarida innovatsion kompetentlikka to'xtalib o'tiladi. Ularga ko'ra, innovatsion kompetentlik – ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatini ifodalaydi. Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integratsiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omillar sifatida baholanadi [5].

Umumta'lim maktablarida innovatsion muhitning bosh g'oyasi inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim tashkilotlari darajasida amalga oshiriladigan innovatsion faoliyatni davlat va jamiyatning strategik maqsadlariga muvofiqlashtirish, boshqaruv, pedagogik jamoa, har bir o'qituvchi kontekstida yangiliklar yaratish, joriy qilish va natijaga erishishni ifodalashi lozim. Buning uchun, ta'limni boshqaruv organlari, oliy, malaka oshirish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari, kasbiy uyushma va hamjamiyatlar, o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar hamda boshqa manfaatdor tuzilmalardan iborat ta'lim jarayoni subyektlarining innovatsion salohiyatini shakllantirish, unga tegishli sharoitlar hozirlash zaruriyati tug'iladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uning ta'limning o'zgaruvchan maqsadlari va strategik yo'nalishlarida belgilangan vazifalarga mos ravishda mahoratini yuksaltirishni ta'minlashda asosiy bo'g'inni aks ettiradi. Unda o'qituvchining malakasini oshirish orqali innovatsion kompetensiyasi rivojlantiriladi, pirovardida, ta'lim sifatiga erishiladi.

Pedagog xodimlarning innovatsion kompetentligiga doir izlanishlar olib borgan olim N.F.Ilinaning [6] fikricha, innovatsion muhit innovatsion ta'limda innovatsion jarayonlarning mikro va makro darajalari, maktablarda innovatsion faoliyatining amaliy, subyektiv va tashkiliy boshqaruv jihatlari, innovatsiyalarning tatbiq etish darajasi o'qituvchining faoliyatiga ilmiy va uslubiy bog'liqligi, innovatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Uning nazariy asoslari sohaning negizini tashkil etuvchi qonunlar, omillar va tamoyillar

majmui, o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi va tashkiliy jihatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan qoidalar majmui bilan ifodalanadi.

Innovatsion muhit gipotetik-deduktiv usuli orqali aniqlanadigan quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunadi:

- ta'lim muhitini o'zgartirishning maqsad hamda vazifalari jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holat, rivojlanish an'analari, innovatsion sharoit, o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish zarurati;

- ta'lim sohasining makro va mikro darajalari o'rtasidagi munosabatlar metodologik asos hamda tamoyillarning birligi;

- innovatsion muhitning faoliyat ko'rsatishi ob'ektiv ravishda uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'rtasidagi tashqi ta'sirlar, munosabatlar va aloqalarga bog'liqligi;

- innovatsion muhitda o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish ta'lim tizimidagi yangiliklarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va hamrohlik qilishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirilgan harakatlarda amalga oshirilishi [6].

Ma'lumki, innovatsion muhit va o'qituvchining innovatsion kompetensiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda muayyan tamoyillarga amal qilinishi pedagogik zaruriyatni bildiradi.

Tadqiqot ishlarini o'rganish asosida akademik A.M.Novikov [8] tomonidan ilgari surilgan tamoyillar asosida biz tomonimizdan takomillashtirilgan quyidagi tamoyillar innovatsion muhitni o'zida mujassamlashtiradi, degan xulosaga keldik (2-rasm.).



## 2-rasm. Innovatsion muhit tamoyillari

*Uzluksizlik tamoyili.* Ta'limning uzluksizligini belgilovchi ushbu tamoyil o'quv faoliyatining butun jarayoni davomida subyekt ishtirokining asosiy omilligini bildiradi. U kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida talabalarning o'quv mashg'ulotlari, elektiv kurslar doirasida o'z ta'lim uchun individual o'quv-tadqiqot dasturini tayyorlashda namoyon bo'ladi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish bosqichida o'qituvchining har qanday hayotiy vaziyatni o'zi uchun ta'lim shakliga aylantirishini nazarda tutadi. Uning namoyon bo'lishi o'qituvchining individual ta'lim trayektoriyasini mustaqil tuzish va amalga oshirishida kuzatiladi.

*Tarkibiy-mazmunlilik tamoyili.* Mazkur tamoyil ta'lim mazmunini shakllantirish uning tashkiliy shakllaridan ustuvorligini bildiradi.

*Variativlik tamoyili* uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim shakllari, vositalari, mazmuni mavjudligi va ularni tanlash mumkinligini ifodalaydi.

*Harakatchanlik tamoyili* ta'lim oluvchiga o'z faoliyatini o'zgartirish yoki qo'shimcha kasblarni o'zlashtirishga doir o'quv dasturlarining mobilligini belgilaydi.

*Individuallashtirish tamoyili.* Ta'limni individuallashtirish insonning alohida xususiyatlarini inobatga olish, imkoniyatlari va iqtidorini namoyish qilishga sharoit yaratadi.

*Uzviylik tamoyili* o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga erkin ko'chish, bir-birini to'ldirishiga imkon beradi.

*Integrativlik tamoyili* ta'lim dasturlarini amalga oshirishda turli tuzilmalarning harakatlarini uyg'unlashtirish va birlashtirishni bildiradi.

*Izchillik va xilma-xillik tamoyili* uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturlari mazmuni va rejalashtirishni aniq ketma-ketlikda olib borish va turli vositalarini taklif etishni ifodalaydi.

*Modullilik tamoyili* ta'lim mazmunini qismlarga ajratish va modulli shakllantirishni belgilaydi.

Hozirgi davrda individual ta'lim trayektoriyasini tuzish uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining ajralmas qismi hamda o'qituvchining malaka darajasini bildiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Individual ta'lim trayektoriyasi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ko'zlangan aniq maqsadlari doirasida muayyan o'quv mazmunini yoki ta'lim tashkilotini tanlash, tadqiqotga yo'naltirilgan vazifalar va topshiriqlar bilan boyitish, innovatsiyalarni loyihalashtirish va ularni amaliyotda sinab ko'rish, muammo vaziyatlarni tushunish, yechimlarni taklif qilish, ilmiy farazlarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi.

Bu jarayonda o'qituvchining anglangan harakatlari ustuvor bo'lib, M.M.Rubinshteyn ta'biri bilan aytganda, pedagogda mustaqil kasbiy takomillashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy vazifalari dolzarb bo'lib qolaveradi [9].

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining maqsadi o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishdan iborat ekan, unda innovatsion kompetensiyani rivojlantirish jarayonda duch keladigan turli muammo va qiyinchiliklar, innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishni bildiradi. Kuzatishlar boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy ehtiyojlarini mustaqil aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelishlarini, shuning uchun ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlashga muhtoj ekanliklarini ko'rsatdi. Shuningdek, kasbiy ehtiyojlarning o'rganilishi ixtiyoriy o'qituvchi uchun o'quv maqsadlari va dasturlarini individuallashtirish talab etilishi, ya'ni ta'lim mazmuni, o'qitish shakli, usullari, vaqti va ketma-ketligini tanlash muhimligini ham ko'rsatdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi individual ta'lim trayektoriyasining to'g'ri loyihalani (maqsad, tahlil, rejalashtirish, amalga oshirish, baholash) kasbiy ehtiyojlarini to'g'ri tashxislash, bo'shliqlarini bartaraf etishga doir belgilangan tadbirlarni sifatli amalga oshirish va ko'zlangan maqsadga erishishini kafolatlaydi. Maqsadga erishilishi yoki ehtiyojning qondirilishi keyingi maqsad yoki ehtiyoj uchun poydevor, boshlang'ich nuqtani bildiradi.

Tushunish mumkinki, innovatsion jarayonlarda faqatgina o'qituvchi omili yetarli bo'lmaydi. Unda yangiliklarga ochiq va kuchli xohish bo'lgan innovatsion boshqaruv tizimi ham nihoyatda muhim. Innovatsion boshqaruv tizimi davlat va jamiyat ehtiyojlaridan iborat ijtimoiy buyurtmani to'liq anglash, inson resurslari bilan ishlash strategiyasini shakllantirish, ta'lim mazmuni va natijalari sifatini loyihalash, ilmiy-metodik qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish,

turli hamjamiyatlar, ilg'or tajribalar, mualliflik amaliyotlarini joriy qilishga doir maydonchalar yaratishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uzoq hamda murakkab jarayon sifatida ochiqlik, nochiziqlik xususiyatlariga ega bo'lib, quyidagi bosqichlarni taqozo qiladi:

innovatsion kompetensiya asoslarini yaratish (oliy ta'lim tashkilotida olinadigan umumiy pedagogik tayyorgarlik);

innovatsion kompetensiyani shakllantirish (oliy ta'lim tashkilotida o'qish davri va faoliyatining dastlabki yillari);

innovatsion kompetensiyani rivojlantirish (pedagogik faoliyati davomida uzluksiz).

Ko'rinib turibdiki, mazkur bosqichlarda uzluksizlik bosh omil bo'lib, o'qituvchida innovatsion kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning turli darajalari o'rtasidagi uzviy munosabatlarni bildiradi.

O'qituvchi innovatsion kompetensiyasini shakllantirishda butun jarayonni insonparvarlashtirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayanish lozim. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy "qo'llab-quvvatlovchi" ta'limga muqobil bo'lgan "noan'anaviy, nostandart, ilg'or ta'lim" tushunchasi dolzarblashadi. Bunday tizimda o'qituvchining ijodiy qobiliyati, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish va noaniqlik sharoitlarida murakkab muammolarni hal qilish yo'llarini topa olishi alohida o'rin tutadi. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash vositasi, bizningcha, o'qituvchining individual o'quv dasturi bo'lishi mumkin. Chunki oliy ta'limda o'qish o'qituvchining kasbiy karerasini loyihalashda muhim ahamiyatga ega. Kasbiy rivojlanishining ushbu bosqichi kasbiy faoliyati, kelajagi qanday qurilishini belgilab beradi. Shuning uchun bu davrda talaba tomonidan individual ta'lim trayektoriyasining asoslari ishlab chiqilishi kerak.

Individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish orqali oliy hamda malaka oshirish ta'limi mazmunining uzviyligi, jarayon uzluksizligining ta'minlanishi o'qituvchining sifat o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'zining kasbiy takomillashuvi subyektiga aylanishi, pedagogik faoliyati va shaxsini o'zgartirishi, aniq maqsadlarni belgilash, harakatlarini loyihalash, natijalari uchun mas'uliyatni zimmasiga olishni rag'batlantiradi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish quyidagi vositalarni amalga oshirish imkonini beradi (3-rasm):



**3-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish vositalari**



Demak, innovatsiyalar uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini yangicha mazmun, o'qitishning usul hamda vositalari asosida tashkil etishni taqozo etadi. Ya'ni, mavjud bilimlardan innovatsion foydalanishga asoslanadi. Uni amalga oshirish tashkiliy-boshqaruv o'zgarishlarni, o'qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish tizimi hamda ta'lim jarayoni subyektlarining xulq-atvorini o'zgartirishni talab etadi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mumkin qadar ko'proq innovatsion faoliyatga undash, yangiliklarga yaqinlashtirish zarur bo'ladi. Ustoz-shogird amaliyotini kuchaytirish, bo'lajak va faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar tandemini yaratish, nazariya va amaliyotni bog'lash o'sish nuqtalari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib qilib shuni ta'kidlash mumkinki mazkur yondashuv talaba va pedagoglarda o'quv dasturini shakllantirish jarayonida ishtirok etish, takliflar kiritish, hamkorlikda ishlash, individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish uchun ehtimoliy ta'lim resurslaridan foydalanish, ta'lim texnologiyalari va maxsus kasbiy tayyorgarlik, shuningdek, o'qituvchida innovatsion kompetensiyani rivojlantirish talab etadi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/630/1101-son, 24.07.2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
4. Azixodjayeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar va o'qituvchi mahorati. – T.: Meros, 2009. – 34 b.
5. Ishmuhammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari // Metodik qo'llanma. – T., 2014. – 87 b.
6. Ильина Н.Ф. Становление инновационной компетентности педагога в региональном пространстве непрерывного образования: дис...д-ра пед.наук. – Красноярск, 2014. – 361 с.
7. Жилкин С.Ф. Социолого-педагогические аспекты управления образовательным пространством промышленного города. // Педагогика, 2003, -№ 3. -С. 26-32.
8. Новиков А.М. Методология образования. – М., 2006. – 488 с.
9. Рубинштейн М.М. Проблема учителя // под ред. В.А. Сластенина. – М.: Академия, 2004. – 176 с.
10. Saidahmedov N.S., Abdvohidov S. Kasb ta'lim o'qituvchisining pedagogik faoliyati modeli. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 128 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).